



## MANIPULYATIV TA'SIR SHAROITIDA SO'ROQ QILINUVCHINING EMOTSIONAL REAKSIYALARINI PSIXOLOGIK TAHLIL QILISH

Mamayunusov Zuxriddin Habibullo o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Farg'ona mintaqaviy o'quv markazi  
"Jismoniy va jangovar tayyorgarlik" sikli o'qituvchisi, leytenant.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20199172>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-may 2026 yil  
Ma'qullandi: 12-may 2026 yil  
Nashr qilindi: 14-may 2026 yil

### KEYWORDS

*manipulyativ ta'sir, so'roq psixologiyasi, emotsional reaksiyalar, tergov psixologiyasi, video-konferensaloqa, neverbal kommunikatsiya, mikroemotsiyalar, psixologik himoya mexanizmlari, yolg'on axborot, kommunikativ ta'sir, kriminalistik taktika, stress, xavotir, mimika, tergov faoliyati.*

### ABSTRACT

*mazkur maqolada manipulyativ ta'sir sharoitida so'roq qilinuvchining emotsional reaksiyalarini psixologik tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlari, jahon, MDH va O'zbekiston olimlarining tergov psixologiyasi, emotsional reaksiyalar, neverbal kommunikatsiya hamda manipulyativ ta'sirga oid ilmiy qarashlari, video-konferensaloqa orqali o'tkaziladigan so'roq jarayonining psixologik xususiyatlari, shaxsning himoya mexanizmlari, qo'rquv, xavotir, agressivlik va kommunikativ reaksiyalarining namoyon bo'lish shakllari, manipulyativ xatti-harakatlarni aniqlashda mikroemotsiyalar, mimika, nutq tempi, ovoz tembri va neverbal signallarning diagnostik ahamiyati, tergov samaradorligini oshirish, haqqoniy ko'rsatmalar olish va sud-tergov amaliyotida psixologik yondashuvlarni takomillashtirish haqida so'z yuritilgan.*

Zamonaviy jinoyatchilikka qarshi kurash jarayonida tergov faoliyatining samaradorligini oshirish, ayniqsa so'roq jarayonida shaxs psixologiyasini chuqur tahlil qilish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda [15, 15-b.]. Bugungi kunda tezkor-qidiruv va tergov faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi, jumladan video-konferensaloqa tizimlari orqali so'roq o'tkazish imkoniyatining paydo bo'lishi tergov jarayonining tashkiliy va taktik jihatlari sezilarli o'zgarishlar kiritmoqda [10, 48-b.]. Bu esa so'roq qilinuvchining emotsional reaksiyalari, psixologik himoya mexanizmlari hamda manipulyativ ta'sirga bo'lgan munosabatini yangicha ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishni talab etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini liberallashtirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda tergov faoliyatini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida qonun ustuvorligini ta'minlash, inson qadrini ulug'lash, sud-huquq organlari faoliyatida

shaffoflikni kuchaytirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan [3]. Mazkur islohotlar doirasida tergov harakatlarini masofaviy shaklda amalga oshirish, elektron dalillar bilan ishlash hamda protsessual harakatlarni raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sud-tergov faoliyatida inson huquqlarini ishonchli himoya qilishga oid farmon va qarorlarida tergov jarayonida shaxsga nisbatan noqonuniy psixologik bosim o'tkazilishining oldini olish, qiynoq va ruhiy zo'rvonlikka yo'l qo'yimaslik, protsessual adolat tamoyillarini ta'minlash masalalari muhim yo'nalish sifatida qayd etilgan [2, 6-b.]. Bu esa so'roq jarayonida manipulyativ ta'sir va emotsional bosim mexanizmlarini psixologik jihatdan chuqur o'rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Bugungi kunda tergov amaliyotida video-konferensaloqa vositalari orqali so'roq o'tkazish jinoyatlarni ochish va tergov qilish tizimida kriminalistik ta'minotning yangi bosqichi sifatida qaralmoqda [5, 112-b.]. Mazkur shaklning amaliyotga joriy etilishi tergovchi va so'roq qilinuvchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini yuzaga keltirmoqda. Chunki masofaviy muloqot sharoitida shaxsning emotsional reaksiyalari, mimikasi, tana tili va neverbal signallarini to'liq kuzatish murakkablashadi. Natijada so'roq qilinuvchining ichki psixologik holatini baholash, yolg'on yoki manipulyativ xatti-harakatlarni aniqlash yanada murakkab tus oladi.

Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, so'roq jarayonida insonning qo'rquv, xavotir, ichki zo'riqish, himoyalani, agressiya yoki ijtimoiy moslashuv kabi emotsional reaksiyalari uning xulq-atvori va ko'rsatmalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi [12, 73-b.]. Ayniqsa manipulyativ ta'sir sharoitida ushbu reaksiyalar kuchayib, shaxsning ongli yoki ongsiz ravishda yolg'on ma'lumot berishiga, javobdan qochishiga yoki kommunikativ himoya mexanizmlarini ishga tushirishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mazkur holatda tergovchi tomonidan qo'llaniladigan taktik usullar alohida ahamiyat kasb etadi. Tergov amaliyotida qo'llaniladigan emotsional va mantiqiy ta'sir usullari, kommunikativ kontaktni o'rnatish, ishonch muhitini shakllantirish hamda so'roq qilinuvchining psixologik holatini nazorat qilishga qaratilgan taktik kombinatsiyalar tergov samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi [10, 51-b.]. Shu bois manipulyativ ta'sir sharoitida so'roq qilinuvchining emotsional reaksiyalarini psixologik tahlil qilish nafaqat tergov psixologiyasi, balki kriminalistika, yuridik psixologiya va tezkor-qidiruv faoliyati nazariyasining ham muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

**Dolzarbli.** Bugungi kunda O'zbekistonda sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish doirasida tergov faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, inson huquqlari himoyasini kuchaytirish va protsessual adolat tamoyillarini ta'minlash bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda [2]. Bu esa tergov psixologiyasi, ayniqsa manipulyativ ta'sir va emotsional reaksiyalarni diagnostika qilish masalalarini yanada dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylantirmoqda.

**Materiallar va metodlar.** Mazkur tadqiqot ishida manipulyativ ta'sir ostida so'roq qilinuvchida yuzaga keladigan emotsional reaksiyalar, ularning psixologik mexanizmlari, masofaviy so'roq sharoitidagi kommunikativ xususiyatlar hamda tergov jarayonida qo'llaniladigan psixologik-taktik yondashuvlarning ilmiy-amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

Manipulyativ ta'sir sharoitida so'roq qilinuvchining emotsional reaksiyalarini psixologik tahlil qilish bugungi zamonaviy tergov psixologiyasi va kriminalistik taktikaning eng murakkab hamda dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida video-konferensaloqa vositalari orqali so'roq o'tkazish amaliyotining kengayishi tergov jarayonidagi psixologik munosabatlar tizimini sezilarli darajada o'zgartirdi [15, 15-b.]. Masofaviy muloqot sharoitida so'roq qilinuvchi shaxsning emotsional reaksiyalarini, kommunikativ himoya mexanizmlari va manipulyativ xatti-harakatlari yanada murakkab psixologik tus oladi.

Jahon psixologiya fanida emotsional reaksiyalar va manipulyativ ta'sir masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Amerikalik psixolog Pol Ekman insonning mikroemotsional reaksiyalarini tadqiq etib, yolg'on axborotni aniqlashda mimika va qisqa muddatli yuz ifodalarining muhim diagnostik ahamiyatga ega ekanligini ilmiy asoslagan [4, 74-b.]. Olimning fikricha, inson yolg'on gapirayotgan paytda ong nazorat qila olmaydigan mikroemotsiyalar namoyon bo'ladi va ular qo'rquv, xavotir, aybdorlik yoki ichki zo'riqish shaklida yuzaga chiqadi. Video-konferensaloqa orqali olib boriladigan so'roqlarda aynan ushbu mikroreaksiyalarni kuzatish murakkablashadi. Chunki ekran sifati, kamera burchagi, internet uzilishlari yoki vizual signalning kechikishi emotsional belgilarni to'liq tahlil qilish imkoniyatini pasaytiradi.

Amerikalik olim Albert Mehrabian kommunikativ jarayonda neverbal signallarning ustuvorligini asoslab, inson muloqotidagi ma'lumotlarning katta qismi mimika, intonatsiya va tana harakatlari orqali uzatilishini ta'kidlagan [6, 41-b.]. Mazkur nazariya tergov psixologiyasida alohida ahamiyatga ega bo'lib, masofaviy so'roq jarayonida neverbal axborotning cheklanishi tergovchi uchun qo'shimcha psixologik murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli zamonaviy tergov amaliyotida audiointonatsion o'zgarishlar, nutq tempi, pauzalar va ovozdagi emotsional titrashlarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Nemis olimi Karl Leonhard shaxs aksentuatsiyasi nazariyasida emotsional barqarorlik va affektiv reaksiyalarning individual xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan [12, 92-b.]. Uning fikricha, demonstrativ, xavotirli yoki affektiv tipdagi shaxslar manipulyativ ta'sir sharoitida turlicha emotsional reaksiyalarni namoyon qiladi. Masalan, demonstrativ tipdagi shaxslar o'zini sun'iy ravishda xotirjam ko'rsatishga urinishi mumkin, biroq mimikadagi nomuvofiqlik va ortiqcha hissiy drammatizatsiya ularning ichki zo'riqishini fosh etadi. Xavotirli tipdagi shaxslarda esa qo'rquv, nutqdagi uzilishlar va psixologik himoyalash reaksiyalarini kuchliroq namoyon bo'ladi.

Psixanalitik yo'nalish vakili Zigmund Freyd inson xulq-atvorida ongsiz himoya mexanizmlarining rolini alohida ta'kidlagan [16, 118-b.]. Freydgga ko'ra, repressiya, inkor etish, ratsionalizatsiya yoki proyeksiya kabi psixologik himoya mexanizmlari stressli vaziyatlarda avtomatik ravishda ishga tushadi. So'roq jarayoni ham inson psixikasi uchun yuqori emotsional bosim manbai hisoblanganligi sababli, manipulyativ ta'sir ostida so'roq qilinuvchi ushbu himoya mexanizmlaridan faol foydalanadi. Natijada u savollardan qochish, mavzuni o'zgartirish, hissiy drammatizatsiya yoki yolg'on konstruktsiyalar yaratish orqali o'zini himoya qilishga urinadi.

MDH davlatlari olimlari ham tergov psixologiyasi va manipulyativ ta'sir masalalarini keng tadqiq qilganlar. Rossiyalik olim A.R. Ratinov tergov psixologiyasi doirasida so'roq jarayonidagi emotsional bosim va psixologik kontakt masalasiga alohida e'tibor qaratgan [6, 203-b.]. Uning ta'kidlashicha, tergovchining asosiy vazifasi — so'roq qilinuvchi bilan psixologik ishonch

muhiti yaratish orqali himoyalanih reaksiyalarini kamaytirishdan iboratdir. Olimning fikricha, haddan tashqari bosim yoki agressiv kommunikativ usullar so'roq qilinuvchining qarshilik reaksiyalarini kuchaytirib, yolg'on ko'rsatmalar berish ehtimolini oshiradi.

Rossiyalik kriminalist V.L.Vasilyev esa tergov taktikasida emotsional ta'sir usullarini ilmiy asoslab bergan [14, 144-b.]. U tergovchi tomonidan qo'llaniladigan emotsional pauza, kutilmagan savol, sukut saqlash yoki psixologik kontrast usullarining manipulyativ xatti-harakatlarni aniqlashdagi samaradorligini ko'rsatib bergan. Ayniqsa video-konferensaloqa orqali olib boriladigan so'roqlarda emotsional pauzalar va nutqdagi intonatsion o'zgarishlarni kuzatish muhim diagnostik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Rudenkoning tadqiqotlarida masofaviy so'roqning kriminalistik va psixologik jihatlari chuqur tahlil qilingan bo'lib, unda video-konferensaloqa orqali muloqot qilish jarayonida inson diqqatining parchalanishi, kommunikativ charchoq va emotsional sovuqlik holatlari kuzatilishi qayd etilgan [15, 18-b.]. Olimning fikricha, masofaviy muloqot sharoitida so'roq qilinuvchi o'zini psixologik jihatdan nisbatan xavfsizroq his qilishi mumkin, bu esa ayrim hollarda uning manipulyativ faolligini oshiradi.

O'zbekiston psixolog va huquqshunos olimlari ham so'roq psixologiyasi, kommunikativ ta'sir va shaxsning emotsional reaksiyalariga oid ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Professor G'.B.Shoumarov yuridik psixologiya doirasida shaxsning stressli vaziyatlardagi xulq-atvor reaksiyalarini o'rganib, tergov jarayonidagi emotsional zo'riqish inson tafakkuri va xotirasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan [17, 57-b.]. Olimning fikricha, kuchli psixologik bosim ostida inson voqealarni chalkashtirib yuborishi yoki ayrim tafsilotlarni ongsiz ravishda yashirishi mumkin.

O'zbek olimi E.G'.G'oziyev esa emotsional holatlarning inson kommunikativ faoliyatiga ta'sirini tahlil qilib, xavotir va qo'rquv darajasining ortishi nutq tezligi, diqqat barqarorligi hamda qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslagan [9, 213-b.]. Bu holat so'roq jarayonida ayniqsa yaqqol namoyon bo'lib, manipulyativ ta'sir ostidagi shaxsning javoblarida mantiqiy uzilishlar, nutqdagi nomuvofiqlik va emotsional beqarorlik yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

**Natijalar.** Manipulyativ ta'sir sharoitida so'roq qilinuvchining emotsional reaksiyalarini tahlil qilishda bir qator psixologik indikatorlar muhim ahamiyatga ega. Jumladan:

- mimikadagi keskin o'zgarishlar;
- ovoz tembrining o'zgarishi;
- nutq tempi va pauzalarining nomuvofiqligi;— ko'z qarashidagi beqarorlik;
- ortiqcha himoyalanih reaksiyalari;
- agressiv yoki haddan tashqari passiv kommunikativ xatti-harakatlar;
- javoblarning emotsional rangdorligi va mantiqiy mos kelmasligi.

Mazkur indikatorlarni kompleks tahlil qilish tergovchiga so'roq qilinuvchining haqiqiy psixologik holatini aniqlash, yolg'on axborotni fosh etish hamda samarali kommunikativ strategiyani tanlash imkonini beradi. Shu jihatdan manipulyativ ta'sir sharoitida emotsional reaksiyalarni psixologik tahlil qilish tergov samaradorligini oshirish, haqqoniy ko'rsatmalar olish hamda jinoyatlarni tezkor fosh etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalar qilindi: manipulyativ ta'sir sharoitida so'roq qilinuvchining emotsional reaksiyalarini psixologik tahlil qilish tergov psixologiyasi va kriminalistik taktikaning muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri ekanligi

tadqiqot davomida o'z tasdig'ini topdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining, xususan video-konferensaloqa tizimlarining tergov amaliyotiga joriy etilishi so'roq jarayonining nafaqat tashkiliy, balki psixologik xususiyatlarini ham tubdan o'zgartirmoqda. Masofaviy muloqot sharoitida so'roq qilinuvchi shaxsning emotsional reaksiyalari, kommunikativ himoya mexanizmlari va manipulyativ xatti-harakatlari yanada murakkab shaklda namoyon bo'lishi aniqlandi.

Jahon psixologlari, jumladan P.Ekman, A.Mehrabian, Z.Freyd hamda K.Leonhardlarning nazariyalari asosida shaxsning qo'rquv, xavotir, ichki zo'riqish, agressivlik va himoyalani sh reaksiyalari yolg'on axborot berish yoki ma'lumotni yashirish bilan uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslandi. Ayniqsa mikroemotsiyalar, mimikadagi qisqa muddatli o'zgarishlar, nutqdagi pauzalar, ovoz tembri va neverbal signallar manipulyativ xatti-harakatlarni aniqlashda muhim psixologik indikatorlar sifatida namoyon bo'lishi qayd etildi.

MDH olimlari tomonidan ishlab chiqilgan tergov psixologiyasi va taktik ta'sir konsepsiyalari tahlili shuni ko'rsatdiki, so'roq jarayonida psixologik kontakti to'g'ri tashkil etish, ishonch muhitini yaratish hamda emotsional bosimni me'yorida boshqarish haqqoniy ko'rsatmalar olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Aksincha, haddan tashqari bosim, agressiv kommunikativ usullar yoki manipulyativ ta'sirning noto'g'ri qo'llanishi so'roq qilinuvchining himoyalani sh reaksiyalarini kuchaytirib, yolg'on ko'rsatmalar ehtimolini oshiradi.

O'zbekiston olimlarining yuridik psixologiya va emotsional holatlar bo'yicha tadqiqotlari asosida tergov jarayonida insonning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligi aniqlandi. Chunki emotsional barqarorlik darajasi, stressga chidamlilik, xavotir va kommunikativ faollik shaxsning so'roq jarayonidagi xulq-atvori hamda ko'rsatmalarining ishonchliligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida video-konferensaloqa orqali olib boriladigan so'roqlarda mimika, tana tili va mikroemotsional reaksiyalarni to'liq kuzatish imkoniyatining cheklanishi tergovchi faoliyatida yangi psixologik va taktik yondashuvlarni talab qilishi aniqlandi. Shu bois zamonaviy tergov amaliyotida emotsional reaksiyalarni kompleks psixologik tahlil qilish, kommunikativ diagnostika usullaridan foydalanish hamda tergovchilarning psixologik kompetentligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, manipulyativ ta'sir sharoitida so'roq qilinuvchining emotsional reaksiyalarini psixologik tahlil qilish tergov samaradorligini oshirish, yolg'on axborotni aniqlash, haqqoniy ko'rsatmalar olish hamda inson huquqlarini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

**Amaliy tavsiyalar.** Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni beramiz:

✓ Manipulyativ ta'sir sharoitida so'roq qilinuvchining emotsional reaksiyalarini to'g'ri baholash uchun tergov va tezkor-qidiruv xodimlarining psixologik tayyorgarligini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ularda mikroemotsiyalarni aniqlash, yolg'on axborot belgilarini kuzatish hamda manipulyativ xatti-harakatlarni tahlil qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan maxsus treninglar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

✓ Video-konferensaloqa orqali o'tkaziladigan so'roqlarda yuqori sifatli audio va video texnologiyalaridan foydalanish zarur. Chunki tasvir va ovoz sifati qanchalik aniq bo'lsa, so'roq qilinuvchining mimikasi, nutqidagi o'zgarishlar va neverbal reaksiyalarini kuzatish imkoniyati shunchalik oshadi.

✓ So'roq jarayonidan oldin shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, temperament tipi, stressga chidamlilik darajasi va kommunikativ uslubini oldindan o'rganish tergovchiga samarali taktik yondashuvni tanlash imkonini beradi. Bu esa emotsional bosimni boshqarish va haqqoniy ko'rsatmalar olishda muhim omil hisoblanadi.

✓ Tergovchilarda psixologik kuzatuvchanlik, empatik tinglash va kommunikativ boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlarni kuchaytirish lozim. Ayniqsa insonning emotsional holatini sezish va muloqot davomida psixologik kontakti saqlab qolish tergov samaradorligini oshiradi.

✓ Manipulyativ ta'sir va yolg'on axborotni aniqlashda faqat bitta mimik yoki verbal belgiga tayanish yetarli emas. Emotsional reaksiyalarni mimika, ovoz, nutq tempi, pauzalar va xulq-atvor elementlari bilan birgalikda kompleks tarzda tahlil qilish tavsiya etiladi.

✓ So'roq jarayonida haddan tashqari psixologik bosim, agressiv kommunikativ usullar yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi yondashuvlardan voz kechish zarur. Chunki bunday holatlar so'roq qilinuvchining himoyalanih reaksiyalarini kuchaytirib, yolg'on ko'rsatmalar berish ehtimolini oshiradi.

✓ Sud-tergov amaliyotida yuridik psixologlar ishtirokini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa murakkab emotsional holatdagi yoki manipulyativ xatti-harakatlarga moyil shaxslar bilan ishlashda psixologlarning ishtiroki samarali natija beradi.

✓ Oliy ta'lim muassasalarining yuridik psixologiya, kriminalistika va tezkor-qidiruv faoliyati yo'nalishlarida "Manipulyativ ta'sir psixologiyasi", "So'roq psixologiyasi" hamda "Neverbal diagnostika" kabi maxsus fanlarni kengroq joriy etish maqsadga muvofiq.

✓ Shuningdek, tergov jarayonida emotsional reaksiyalarni baholashga oid milliy psixodiagnostik metodikalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarur. Bu tergov amaliyotida psixologik tahlilning ilmiy asoslangan va tizimli olib borilishiga xizmat qiladi.

Sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish jarayonida tergov faoliyatida raqamli psixologik monitoring texnologiyalaridan foydalanish istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida rivojlantirilishi lozim. Bu esa manipulyativ xatti-harakatlarni tezkor aniqlash va so'roq samaradorligini oshirish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-tergov faoliyatida inson huquqlari kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2021. – 6-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
4. Ekman P. Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life. – New York: Times Books, 2003. – P. 74–81.
5. Heiselberg L., Stepinska A. Remote Communication Psychology in Criminal Investigation Processes // International Journal of Criminal Psychology. – London, 2022. – Vol. 8. – P. 108–116.
6. Mehrabian A. Nonverbal Communication. – Chicago: Aldine-Atherton, 1972. – P. 40–45.
7. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2018. – 352 с.

8. Васильев В.Л. Юридическая психология. – Санкт-Петербург: Питер, 2009. – С. 144–149.
9. Гозиев Э.Ф. Умумий психология. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2010. – 213–220-б.
10. Завьялов В.В., Руденко А.В. Тактические операции при производстве дистанционного допроса // Криминалистика и судебная экспертиза. – Москва, 2022. – №2. – С. 47–53.
11. Карнеги Д. Как выработать уверенность в себе и влиять на людей, выступая публично. – Москва: Попурри, 2020. – 287 с.
12. Леонгард К. Акцентуированные личности. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 73–79 с.
13. Немов Р.С. Психология. В 3 книгах. Книга 1. – Москва: Владос, 2016. – 688 с.
14. Ратинов А.Р. Судебная психология для следователей. – Москва: Юрлитинформ, 2001. – С. 203–210.
15. Руденко А.В., Завьялов В.В. Тактические особенности допроса с использованием видео-конференц-связи // Юридическая психология. – Москва, 2022. – №3. – С. 14–19.
16. Фрейд З. Психология бессознательного. – Москва: Просвещение, 1990. – С. 118–126.
17. Шоумаров Ғ.Б. Юридик психология. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019. – 57–63-б.

INNOVATIVE  
ACADEMY